

**TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK ZULMI VA IJTIMOYIY-IQTISODIY  
INQIROZ (1916-YIL QO'ZG'OLONI ARAFASIDA)**

**Normuminov Ramziddin Xayitovich**

*Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti*

+998 93 333 30 93 [ramziddinnormuminov18@gmail.com](mailto:ramziddinnormuminov18@gmail.com)

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 25.06.2026*

*Revised: 26.06.2026*

*Accepted: 27.06.2026*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Turkiston, agrar  
islohotlar,  
mustamlakachilik  
siyosati, chor  
Rossiyasi, Birinchi  
jahon urushi,  
paxtachilik, yer  
munosabatlari,  
dehqonlar, ishchilar  
sinfi, milliy burjuaziya,  
iqtisodiy inqiroz,  
solliqlar, qahatchilik,  
ijtimoiy adolatsizlik,  
milliy-ozodlik harakati,  
1916-yil qo'zg'oloni,  
Turkiston iqtisodiyoti,  
mustamlakachilik  
zulmi.*

*Ushbu maqolada Turkistonda XX asr boshlarida, ayniqsa Birinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan agrar islohotlar, chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati va uning mahalliy aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Paxtachilikka biryoqlama ixtisoslashtirish, yer munosabatlaridagi tengsizlik, solliqlarning ortishi, oziq-ovqat tanqisligi hamda mahalliy ishchi va dehqonlarning og'ir mehnat sharoitlari yoritilgan. Shuningdek, urush davrida kuchaygan iqtisodiy inqiroz, mustamlakachilik zulmi va ijtimoiy adolatsizlik natijasida xalq noroziligining ortib borishi hamda 1916-yilgi milliy-ozodlik qo'zg'olonining yuzaga kelish sabablari tarixiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida ochib berilgan.*

O'zbek xalqining o'tmishi qahramonona ozodlik kurashlari va unutilmas tarixiy voqealarga boy. Millatimiz ozodlik va ijtimoiy adolat yo'lida ulkan zafarlar bilan birga, og'ir sinovlarni ham boshidan kechirdi, mustaqillik uchun mardonovor kurash olib bordi. Bu jasorat an'analari asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. 1916-yilda O'zbekiston, butun Markaziy Osiyo va Qozog'iston hududlarini qamrab olgan xalq qo'zg'oloni ana shunday unutilmas, yorqin tarixiy sahifalardan biridir. Mazkur keng ko'lamlı isyon chor Rossiyasi mustamlakachilik tuzumini larzaga keltirib, unga qaqshatqich zarba bergan qudratli milliy-ozodlik harakati edi. Chor Rossiyasi to'qimachilik sanoati kapitalistlarini

arzon bahoda Turkiston paxtasi bilan ta'minlab keldi, Amerika Qo'shma Shtatlaridan tilla hisobiga paxta sotib olish cheklab qo'yildi. Turkistonda don ekinlari maydonlari qisqartirilib, o'lkaga rus pomeshchiklarining g'allalari keltirilib, yuqori narxda sotilardi. Bu mustamlakachilik iqtisodiy siyosati chor hukumatining amaldorlaridan biri A. V. Krivosheinning 1912-yilda Turkistonga qilgan safari to'g'risidagi dokladida quyidagicha bayon etilgan edi: «Turkiston bug'doyining har puti — rus Sibir bug'doyi uchun raqobat bo'lsa, Turkiston paxtasining har puti — Amerika paxtasi uchun raqobatdir. Shuning uchun o'lkaga Turkistonga qimmat narxda bo'lsada chetdan Rossiyadan g'alla berib, undagi sug'oriladigan yerlarni paxta uchun bo'shatish yaxshiroqdir».<sup>103</sup>

Turkistonda chorizm va rus imperializmi manfaatlariga mos sanoat tarmoqlariga rivojlandi. 1914-yilning boshigacha Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida 709 sanoat korxonasi mavjud bo'lib, bulardan 220 tasi paxta tozalash<sup>104</sup>, 76 tasi ko'n-teri, 32 tasi pilla quritish zavodlaridan iborat edi. Bularning ko'pchiligi kichik va juda oddiy uskunalar bilan qurollangan, mavsumiy ishlaydigan korxonalar bo'lgan.

Sanoatning asta-sekin rivojlanishi bilan ikki yangi sinf - milliy burjuaziya va ishchilar sinfi vujudga keldi. Mahalliy yirik savdo-sudxo'r tabaqalaridan paxta tozalovchi, moy va ko'n-teri zavodlari xo'jayinlari yetishdi. Turkiston o'lkasidagi 220 ta paxta tozalash zavodidan 117 tasi, shu jumladan Farg'ona viloyatidan — 94, Samarqanddan — 15 va Sirdaryo viloyatidan — 8 zavod milliy burjuaziya vakillari qaramog'ida edi. 75 ta ko'n-teri zavodidan 54 tasi, 34 sovun tayyorlash zavodidan 20 tasi milliy burjuaziya vakillarini edi. Mahalliy burjuaziyaning ko'pchiligi Rossiya va chet el kapitali hamda ichki bozor o'rtasidagi o'zaro bitimlar doirasida vujudga kelgan, mustamlakachilar bilan kelishuvchi komprador burjuaziya edi. Shuning uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan Rossiya mustamlakachilari bilan bog'lanib ketgan edi. Mana shu tarixiy o'zgarishlar natijasida O'rta Osiyo xalq ommasi ikki yoqlama zulm ostida, bir tomondan, chor mustamlakachilari va ikkinchi tomondan, mahalliy feodallar hamda milliy burjuaziya zulmi ostida qoldilar.

O'zbekiston shahar va qishloq mehnatkashlari mustamlakachilik davridagi aholining naqadar og'irligini to'laroq tasavvur qilish va buning natijasida ozodlik harakatining muqarrar kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun yana bir qancha qo'shimcha ma'lumotlarni berishga to'g'ri keladi.

V. V. Zaorskaya va K. A. Aleksandrovning keltirgan ma'lumotlariga qaraganda, Turkistondagi hamma sanoat korxonalarida 20 925 ishchi bo'lib, ulardan o'zbeklar 12 702 kishi, tojiklar 1142, qirg'izlar va qozoqlar 944 kishi edi. Mahalliy aholidan ishchi kadrlarning yetishib chiqishi katta ijobiy voqea bo'ldi.

Lekin hamma ishchilarning va ayniqsa mahalliy ishchilarning ahvoli juda og'ir edi. Mahalliy millat ishchilarining ko'pchiligi (72 protsenti) qora ishlarda band edi. Ish kuni

<sup>103</sup> А. В. Кривошеин, Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием А. В. Кривошеина о поездке в Туркестанский край в 1912 году. Ташкент, 7-бет.

<sup>104</sup> В. В. Заорская и К. А. Александров. Промышленные заведения Туркестанского края. Р., 1915, 39, 95, 132, 152, 170-бетлар.

o'rta hisob bilan 12, hatto ba'zi korxonalarda 17-18 soatga borar edi. Ishchining bir yillik ish haqi 137 so'mdan 177 so'mgacha (ya'ni o'rta hisob bilan kuniga 50 tiyindan kam) yetardi, xolos. G' Rossiya ishchilari iqtisodiy va siyosiy jihatdan og'ir ahvolda yashardi,

Turkiston mustamlaka o'lkasi ishchilarining ahvoli esa undan ham yomon edi.

Ishchilarning juda og'ir ahvolda kun kechirishi goho rasmiy axborotlarda ham e'tirof qilinardi. Masalan, «Turkestanskiy kuryer» gazetasining 1909-yil 12 dekabrda sonida bosilgan maqolalardan birida quyidagi satrlarni o'qish mumkin «Agar siz ishchilarning ahvoli bilan tanishishga qiziqsangiz, deyarli hamma zavodlarda bir xil quyidagi ahvolni uchratasiz:

1) ishchilar yotoq zavoddan yoki omborlarning biridan joy ajratilgan;

2) bu joylar isitilmaydi va sovuq;

3) hamma joyda sutkasiga 12 soatdan ishlaydilar;

4) zavod binosi, mashina bo'limi chidab bo'lmaydigan darajada chang;

5) zavod binosida faqat 3–4 ta shamchiroq fonari bo'lib, buni yoritish deb bo'lmaydi.

Natijada ishchilar butun zavod ichida qorong'ida paypaslab va chang havoni filtratsiya qilib nafas olish uchun bir parcha paxta tishlab yuradilar; 6) mashala/miltillovchi chiroqlar zavod to'xtab qolganda dvigatel — motorlarini to'xtatib, zavodni ko'rikdan o'tkazish va dvigatellarni ishga solib, moylab turadilar, chunki bu ishni bajaruvchi maxsus xizmatchilar yo'q». Bu turning natijasi yaqqol ko'rinib turibdi, har kuni biror zavodda baxtsiz hodisalar uchrab, qattiq shikastlanishlar, ba'zan esa halok bo'lishlar <sup>105</sup>. Sanoat korxonalari kam bo'lganidan shaharlarda muttasil sargardon bo'lib yuruvchilar son-sanoqsiz edi. Ular asosan mardikorlar, boylarning uyida malaylik va boshqa og'ir ishlar bilan band edi. Masalan, statistik ma'lumotlarga qaraganda Sirdaryo viloyatida shunday ishlar bilan shug'ullanuvchilar soni 1910-yilda 39 ming, 1911-yilda esa 41653 kishini tashkil qilgan.

Mehnatkash aholining anchagina qismini tashkil qiluvchi hunarmandlarning ahvoli ham juda og'ir edi. Turkiston o'lkasida 108324 kishi hunarmandchilik bilan shug'ullanardi. Bularning ko'pchiligi kambag'allar bo'lib, boy kustar korxonalar xo'jayinlariga yollangan xalfalar (kustar ishchilar) dan iborat edi. Masalan, 1910-yilda bosilgan «Sirdaryo viloyati obzori» ma'lumotlariga qaraganda, viloyatdagi 11544 kustar korxonalarida 43049 kustar ishchi ishlab, ularning yillik ish haqi 8168 ming so'mni tashkil qilgan. Kustar korxonasida ishlovchilarning kundalik ish haqi o'rta hisobda 52 tiyinni tashkil qilgan xolos. Demak, kambag'al hunarmand, kustar ishchi fabrika-zavod ishchisi singari og'ir hayot kechirgan. Aholining deyarli 90 foizini tashkil qilgan dehqonlar va chorva dorlarning ko'pchiligining ahvoli ham juda og'ir bo'lgan.

Rasmiy statistika ma'lumotlariga qaraganda, Turkistonda sug'oriladigan yerlarni joylashgan xo'jaliklarning 43,9 foizida faqat 1 desyatinagacha, 28,8 foizida 1-2 desyatinagacha, 26,9 foizida esa 2-5 desyatinagacha yeri bor edi. Shunday qilib, dehqon xo'jaliklarining 84,9 foizini mayda yer egaliklari tashkil etardi. Mayda xo'jaliklar ayniqsa

<sup>105</sup> «Обзор Сир-Даринской области за 1910 г.», Ташкент, 1912; то же за 1911 год, 1913, 135-бет.

=====

paxtakor rayonlarda ko‘p edi. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi xo‘jaliklardan 13,3 foizining o‘tloq hisobi bilan har biri 0,6 desyatinagacha yerga ega bo‘lgan; 39,2 foizida 0,6-1 desyatina; 29,9 foizida 1-3 desyatina; 8,1 foizida 3-5 desyatina; 5,1 foizida 5-10 desyatina; 1,2 foizida 10-15 desyatina; 1,2 foizida 15 desyatinadan ortiq yerga ega bo‘lgan. Demak, 1 desyatinadan kam va 1-3 desyatinagacha yeri bo‘lgan mayda dehqon xo‘jaliklar umumiy viloyat aholisining 83,2 foizini tashkil qilgan. Viloyatdagi barcha xo‘jaliklarning faqat bir foizini tashkil etgan 4568 yirik xo‘jalik esa 158589 desyatina eng unumdor yerlarni egallagan. Bunday yirik xo‘jaliklar yeri o‘rta hisob bilan 36 desyatinadan, ya’ni tildagi dehqon xo‘jaligiga nisbatan 36 va undan ham ko‘p marotaba ziyod miqdordagi yerga ega edi<sup>106</sup>. Boshqa viloyatlarda ham ahvol shunday edi.

Katta yer egalari — feodallar plantatsiya xo‘jaligini tashkil qilardilar. Ular mashina ishlatish va yangi agrotehnikani joriy qilish uchun mablag‘ sarflashdan ko‘ra chorvador va mardikorlarning arzon mehnatidan unumli foydalanishni afzal ko‘rdilar. Natijada feodal xo‘jaliklari yerlarini parchalab, chorakor dehqonlarga ijaraga berib, ularni qattiq ekspluatatsiya qilish bilan yer rentasi hisobiga boyib, parazit hayot kechirardilar.

Chorakor dehqon katta yer egasidan ijaraga olgan yer hisobiga hosilning 1/4 qismidan tortib 1/2 gacha, ba‘zan undan ham ko‘p qismini xo‘jayinga berishga majbur edi. Oddiy xalqni yanada ezilishiga sabab bo‘lgan muammolar sudxo‘rliklar edi. Kambag‘al xalq borgan sari qarzga botib ketardi. I jahon urushi arafasida Turkistonda norozilik harakat yanada kuchaydi. Ishchi va soldatlarning norozilik harakati ta’siri ostida dehqonlar harakati ham o‘ydi. Ko‘pincha bu harakatlar mustamlakachi ma’murlar axborotlarida “tartibsizlik”, “banditlar hujumi” deb tavsiflanar edi.

Masalan, 1911-1913 yillarda Farg‘ona viloyat jandarmeriya berilgan ma’lumotlarga ko‘ra “Idora tartiblariga va jamoat osoyishtaligiga qarshi kurashlar sifatida” 1911-yilda 833, 1913-yilda esa 1229 “jinoiy” ish ko‘rilganligi qayd qilinadi. Sirdaryo viloyatida shunday “ayblar” bilan 1911-yilda 3487 kishi, 1913-yilda esa 5384 kishi javobgarlikka tortilgan edi.

Dehqonlarning stixiyali kurash formalaridan biri boylarning uyiga bostirib kirib, ularning mol-mulklarini olib, kambag‘allarga bo‘lib beruvchi to‘dalar harakatidan iborat bo‘ldi. Bu formadagi harakatlar ko‘pincha Namoz Pirimqulov nomi bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat, Namoz to‘dasi Samarqand viloyatida, ayniqsa Kattaqo‘rg‘on va Jizzax uyezdlarida boylar, amaldorlarning uylariga bostirib kirib, mollari, omborlardagi g‘allalarini olib kambag‘al dehqonlarga ulashib berdi, xalq o‘rtasida nom chiqargan mashhur, boylardan qasos oluvchi boshqa to‘dalar ham ko‘p edi.

Shunday qilib, og‘ir sotsial va milliy zulmga qarshi mehnatkash ommaning revolyutsion harakatlari turli formalarda tobora keng quloq yozdi.

Birinchi jahon urushi yillarida ijtimoiy va mustamlakachilik azob-uqubati kuchayishi bilan mehnatkashlarning ahvoli yanada yomonlashdi va bu o‘z navbatida yangi revolyutsion kurashlarga olib kelishi muqarrar edi.

---

<sup>106</sup> «Статистический ежегодник», 1917–1923 гг. (ССУ Турккесреспублики, т. I-кисм, 6–7, 30–31 бетлар.)

Birinchi jahon urushi va uning og'ir oqibatlari O'zbekistonda 1916-yil qo'zg'olonining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Bu urush imperialistik sistemadagi qarama-qarshiliklar natijasida vujudga keldi. Urush yillarida mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish borgan sari kuchaydi. Kambag'al aholining qashshoqligi o'sdi. Mamlakatda oziq-ovqat qahatchiligi, vayrongarchilik va ocharchilik hukm surdi. Imperialistik urush mustamlaka rayonlarida, shu jumladan Turkistonda ayniqsa og'ir oqibatlarga olib keldi.

O'lkada oziq-ovqat mahsulotlari kamayib ketdi. Mustamlaka ma'murlarining yashirin dokladlarida, aholiga g'alla yetishmasligi va qahatchilik belgilari paydo bo'lganligi e'tirof qilindi. Masalan, Toshkent shahar boshlig'i N. Maliskiy o'zining 1916-yil 17-avgustda Sirdaryo viloyat harbiy gubernatoriga yozgan xatida 1915-yilda O'rta Osiyoda g'alla mahsuloti 8,5 million pudga kamayib ketganidan Turkistonning besh viloyatida jami 22 million pud don yetishmay qolgani va natijada ocharchilik boshlanganini aytadi<sup>107</sup>. Buning ustiga keng iste'mol mollari va oziq-ovqat mahsulotlarining narx-navosi haddan tashqari oshib, mehnatkashlar ahvolini yanada og'irlashtirdi. Ular o'zlarining mahsulotlarini haqiqiy mustamlaka ma'muriyati qo'ygan arzon baholarda sotardilar. Lekin bundan barobariga ko'p arzonmalar yuborardilar. Masalan, Samarqand shahar va uyezd aholisining zarur bo'lgan mollarning narx-navosi juda oshib ketganidan nolib, Turkiston general-gubernatoriga yuborgan arizalarini olib ko'raylik. Arizanomada ko'rsatilishicha, mollarning narxi besh baravardan 11 baravargacha oshgan. Xatda mana bunday so'zlar yozilgan edi: "Shu vaqtdagi qimmatchilik aholining juda oz qismini tashkil qiluvchi savdogarlarni haddan tashqari boyitdi, ko'pchilikni esa faqat zarar berib, uning aholisini kundan-kun og'irlashtirdi. 1916-yilda g'alla sotuvchi mayda savdogarlar 10 ming so'mdan, yiriklari esa 200 ming so'mdan foyda ko'rdilar. Bu pullar kambag'al aholining cho'ntagidan savdogarlarga o'tdi". Shuning uchun mehnatkash aholi keng iste'mol mollariga qat'iy narx (taksa) belgilanishini, bo'lmasa mehnatkashlar vijdotsiz savdogarlar qurboni bo'lishi muqarrarligini uqtirishardi.

Narx-navoning oshib ketishida katta yer egalari va savdogarlarning boyligi ko'paydi. O'rta Osiyo temir yo'li jandarma boshqarmasi Qo'qon bo'limi boshlig'ining 1915-yil 18-noyabrdagi maxfiy axborotida yozilishicha, savdogar elementlar «shu qadar foyda olib boyidiki, hozirgi urushday ahvolni yuz yilda ham topib bo'lmaydi» derdilar.

«Ferganskaya jizn» gazetasi o'zining 1916-yil 15-mart sonidagi (1916-yil qo'zg'oloni arafasida bosilgan) maqolasida "spekulyant chayqochilarning shu qadar oshib ketdiki, agar bunga qarshi kurashilmasa yaqin kunlarda xalqning qo'zg'alishiga olib kelishi mumkin", - deb tan berdi.

Urush paytida soliqlar yana oshdi. Turkistondan yig'iladigan yer solig'i 1914-yildagi 6 839 021 so'mdan, 1916-yilda 14 311 771 so'mga yetdi, ya'ni ikki baravar ko'paydi. Hunarmandchilik solig'i esa 1 149 676 so'mdan 2 839 240 so'mga yetdi<sup>2</sup>, bundan dastavval kambag'al xunarmand kustarlar og'ir ahvolga tushdi. Urush vaqtida chor hukumati vaqtida

<sup>107</sup> O'ZSSR Davlat arxivi, f. 1, op. 31, d. 1084, 2-varaq.

(bir pud paxta tolasiga) 2 so‘m 50 tiyin keltirdi. Rasmiy soliqlardan tashqari urush ehtiyoji uchun, deb aholidan har hil ‘miqdorida qo‘shimcha soliq belgiladi va bu hol dehqonlarga yangi kulfat turli yig‘im va «yashiqlar» to‘plandi. Masalan, 1914-1916 yillarda Namangan uyezdi aholisidqn majburiyat tariqasida 3350 ot va 119 640 so‘m pul; Skobelev uyezdi aholisidan esa

4325 ot, 200 yurt, 178 656 so‘m pul; Kattaqo‘rg‘on uyezdidan 2159 ot va 56 531 so‘m pul; Toshkent eski shahar aholisidan 5166 ot va 150 934 so‘m pul yig‘ilgan. 1914-1916 yillar ichida Farg‘ona viloyati aholisidan urush ehtiyojlariga deb qo‘shimcha ravishda 302 545 so‘m “nova” to‘langan edi<sup>108</sup>. Samarqand uyezdidagi Dahbed uchastka dehqonlari uchastka pristavi Sokolniskiy ustidan yozgan shikoyatlarida quyidagi faktlar keltiriladi: pristav urush ehtiyojlari uchun deb 1915-yil yozida aholidan 7 marta 34 300 so‘m to‘latgan, shu yilning oktabr oyida Sokolniskiy aholini ko‘chama ravishda 20 botmondan g‘alla, 8 botmondan guruch, 2 botmondan sabzi, 2 botmondan piyoz topshirishni buyurgan. Natijada Dahbed uchastka volostlaridan 7840 pud bug‘doy, 3136 pud guruch, 784 pud sabzi, 784 pud piyoz, jami 29 615 so‘mlik mahsulot olingan. Shu daromadlar hisobiga Sokolniskiy shaxsiy boyligini oshirib, o‘ziga yangi uy qurib olgan, aholining turmushi esa yana ham yomonlashgan. Biroq boshqa shikoyatlarga o‘xshash bu xatga ham quloq soluvchi bo‘madi. Aksincha, soliqlar, soliqlar, musodara qilishlar va «shunalar» osha bordi. Turkiston general-gubernatori A. N. Kuropatkinning dokladida ko‘rsatilishicha, faqat rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Turkiston o‘lkasidan «urush ehtiyojlari uchun» 1914-1916 yillarda 70 ming ot, 13 441 yurt, 30 ming metr palat, 300 ming tonna go‘sh, 3 million pud paxta moyi, 12 ming tuya va boshqalar musodara qilingan<sup>109</sup>.

1915-yildan boshlab dehqonlar boshiga yana bir katta kulfat tushdi. Bu paxta xaridiga qat‘iy narx belgilanishi bilan bog‘liq edi. Chor hukumati paxta firmalari va to‘qimachilik fabrikasi xo‘jayinlarining manfaatini ko‘zlab, paxtaga arzonlashtirilgan normal narx tayinladi. 1915-yil avgustida millioner N. I. Guchkov raisligida to‘qimachilik fabrikalarini xom ashyo bilan to‘ldirilgan. Bu esa aholiga yanada qattiqroq ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida Turkistonda chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati o‘lka iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanishiga olib keldi. Sug‘oriladigan yerlarning katta qismi paxta ekinlari uchun ajratilishi natijasida oziq-ovqat ekinlari maydonlari qisqarib, aholi turmush darajasi pasaydi. Yer egaligidagi tengsizlik, soliqlarning muntazam oshirilishi, majburiy yig‘imlar va urush ehtiyojlari uchun olib borilgan musodaralar mahalliy aholi ahvolini yanada og‘irlashtirdi.

Birinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik, oziq-ovqat tanqisligi, narx-navoning keskin oshishi hamda mustamlakachilik boshqaruvining zo‘ravon siyosati xalq noroziligining kuchayishiga sabab bo‘ldi. Natijada Turkistonda milliy va ijtimoiy

<sup>108</sup> O‘ZSSR Davlat arxivi, f. I, d. 1311, 66-varaq. O‘ZKP MK qoshidagi Partiya tarixi instituti arxivi, L/M, inv. № 80, t. 2, 30—32, 38, 39, 43, 49, 63, 70-betlar.

<sup>109</sup> «Восстание 1916 г. в Туркестане», (документы документы и материалы), Алма-Ата, 1939, 218-бет.

=====

mazmunga ega bo'lgan ozodlik harakatlari keng quloch yozib, 1916-yilgi xalq qo'zg'olonining yuzaga kelishi uchun zarur tarixiy shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Mazkur qo'zg'olon Turkiston xalqlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash tarixida muhim o'rin tutadi va milliy ozodlik harakatining yorqin namunasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. А. В. Кривошеин, Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием А. В. Кривошеина о поезде в Туркестанский край в 1912 году. Ташкент, 7-бет.
2. В. В. Заорская и К. А. Александров. Промышленные заведения Туркестанского края. Р., 1915
3. «Обзор Сир-Даринской области за 1910 г.», Ташкент, 1912; тоже за 1911 год, 1913
4. «Статистический ежегодник», 1917–1923 гг. (ССУ Туркеспублики, т. I-кисм
5. O'ZSSR Davlat arxivi, f. 1, op. 31, d. 1084, 2-varaq
6. O'ZSSR Davlat arxivi, f. I, d. 1311, 66-varaq. O'ZKP MK qoshidagi Partiya tarixi instituti arxivi, L/M, inv. № 80, t. 2
7. «Восстание 1916 г. в Туркестане», (документы документы и материалы), Алма-Ата, 1939.